

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA IJTIMOIIY KO'NIKMALARNI TAKOMILLASHTIRISH

Raximova Mexribon Abduxolisovna

NamDPI dotsenti, (PhD).

Miss.intelekt@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish va takomillashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, talabalarda ijtimoiy ko'nikmalar tushunchasi, rivojlantirish usullari ochib berildi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda kommunikativ, hamkorlik, muammoni hal qilish hamda empatiya kabi ijtimoiy ko'nikmalar muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ko'nikmalar, boshlang'ich ta'lim, pedagogik kompetensiya, kommunikativ qobiliyat, hamkorlik, ta'lim jarayoni.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования и совершенствования социальных навыков у будущих учителей начальной школы. Также объясняется понятие социальных навыков у учащихся и методы их развития. Подчеркивается важность таких социальных навыков, как коммуникабельность, сотрудничество, решение проблем и эмпатия, для повышения эффективности педагогической деятельности будущих учителей начальной школы.

Ключевые слова: социальные навыки, начальное образование, педагогическая компетентность, коммуникативные способности, сотрудничество, образовательный процесс.

IMPROVING THE SOCIAL SKILLS OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of developing and improving social skills in future primary school teachers. It also explains the concept of social skills in students and methods for their development. The importance of social skills such as communication, collaboration, problem-solving, and empathy for enhancing the teaching effectiveness of future primary school teachers is emphasized.

Keywords: social skills, primary education, pedagogical competence, communication skills, collaboration, educational process.

KIRISH

Mamlakatimiz aholisining 60 % dan ortig'i yoshlar ekanligidan kelib chiqib, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va yoshlarning manfaatlarini har

tomonlama huquqiy hamda ijtimoiy himoya qilishga alohida e'tibor berilib, qator maqsadli chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilmoqda. Davlatimiz rahbari: "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda", deb alohida qayd etdi. Shu bois mamlakatimizda "mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash" ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining nafaqat kasbiy bilimlari, balki ijtimoiy ko'nikmalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun bu ko'nikmalar alohida ahamiyatga ega, chunki ular kichik yoshdagi o'quvchilar bilan doimiy muloqot olib boradi, ularning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda pedagogik ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki amaliy faoliyat jarayonida samarali muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, ijtimoiy muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarga ham ega bo'lishi zarur. Tarbiyaga kompetentsiyaviy yondashuvning yangiligi quyidagilar bilan asoslanadi:

- zamonaviy tarbiyaning o'ziga xosligi;
- tarbiya nazariyasi va amaliyotida stereotiplardan voz kechish;
- dars, darsdan tashqari, ijtimoiy faoliyat jarayonida tizimli tarbiyaning xilma-xil ob'ekt va sub'ektlarini yaratish;
- tarbiyaning an'anaviy shakllari va innovatsion texnologiyalarini uyg'unlashtirish;
- media vositalar va texnologiyalardan maksimal darajada foydalanish;
- natijaviylik ko'rsatkichlari (kompetentsiyalar) majmuini ishlab chiqish va ularni har o'quvchining amaliy faoliyatiga tatbiq etish.

Kompetentsiyaviy yondashuv deganda xilma-xil faoliyat turlarini rivojlantirish uchun universal hisoblangan, shuningdek, vaziyatga mos keladigan vositalardan foydalanish malakasini talab qiluvchi asosiy qobiliyatlar asosida o'quvchilarni hayotiy faoliyatga tayyorlash tushuniladi.

Ijtimoiy ko'nikmalar deganda shaxsning boshqalar bilan samarali muloqot qilish, hamkorlikni yo'lga qo'yish, kelishmovchiliklarni hal etish va jamiyatda faol ishtirok etish qobiliyati tushuniladi. Pedagogik faoliyatda bu ko'nikmalar o'quvchilar bilan muloqot qilish, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va jamoada ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish ta'lim tizimida o'qitishga doir yangicha yondashuvlarni keng joriy etish, kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, ta'lim oluvchilarda ijtimoiy faollik va shaxsiy kompetentlikni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda va bu muhim ilmiy va amaliy muammo hisoblanadi.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan:

1. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi. Ushbu metod orqali pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy manbalar o'rganildi hamda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha nazariy qarashlar tahlil qilindi.
2. Kuzatish metodi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar faoliyati kuzatilib, ularning muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va muammolarni hal etish ko'nikmalari tahlil qilindi.
3. So'rovnoma metodi. Talabalar o'rtasida maxsus so'rovnoma o'tkazilib, ularning ijtimoiy ko'nikmalar darajasi aniqlashtirildi.

Talabalar bilan ijtimoiy ko'nikmlarni takomillashtirish yuzasidan diagnostik metodikalar o'tkazildi. Shuningdek, interfaol metodlar va didaktik o'yinlar tayyorlandi va o'tkazildi. Talabalarga eng oson va qulay bo'lgan bu usul orqali, vaqtni to'g'ri taqsimlash ham muhim ahamiyat ega. Shu nuqtai nazardan "Yordamchilar" o'yini taqdim qilamiz.

"YORDAMCHILAR" O'YINI

O'yinning maqsadi: talabalarda o'zaro yordamga tayyor turish, do'stlik va mardlik fazilatlarini tarbiyalash.

Vaziyat: Keling, so'nggi marotaba kimga va nima uchun yordam berganimiz haqida bir-birimizga aytib beramiz. U Kim edi? Eng yaqin qarindoshingizmi, yaqin

do'stingizmi, balki u mutlaqo notanish kishidir?.. Xo'sh, u kishini esladingizmi? Endi qanday sharoitda sharoitda ro'y berganini eslang. U kishi o'zi yordam so'radimi yo bu sizning tashabbusingizmidi?

Kim boshqalarga ko'rsatgan beg'araz yordami haqida gapirib berishga tayyor?

Hikoya davomida boshqa qatnashchilar so'zlovchining gapirish uslubi, imo- ishoralari, tanaffuslariga va shu kabilarga e'tibor qilib tinglashlari kerak.

Mazkur o'yin orqali talabalarda har qanday vaziyatga tayyor turish, o'zaro yordamga shoshilish, mehr-muhabbatni his qilish, do'stlik va oqibat tuyg'ularini yanada mustahkamlash ko'nikmalarini mustahkamlandi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bizga ma'lumki, milliy psixologiya va pedagogikada bolaning ijtimoiylashuv jarayoni va uning ta'lim-tarbiyasi o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishning o'tmishdan saqlanib kelayotgan katta tajribasi mavjud. Ammo bunda ijtimoiylashuv qoida tariqasida keng ma'noda, ya'ni o'sib kelayotgan avlodning an'ana va qadriyatlarni o'zlashtirishi hamda ijtimoiy tajribani faol qayta qo'llash tufayli jamiyat hayotida ishtirok etish jarayoni va natijasi sifatida tushuniladi. Mazkur holat:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos ravishda o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini maqsadli yo'lga qo'yishga doir pedagogik ta'minotga bo'lgan zarurat va ushbu muammo bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga yetarlicha e'tibor bermaslik o'rtasida;

- zamonaviy ta'lim jarayonining kommunikativ va ijtimoiy yo'nalishini amalga oshirishga bo'lgan zarurat bilan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga nazariy yondashuvlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o'rtasida;

- faoliyat subyekti sifatida boshlang'ich sinf o'quvchisini rivojlantirishga zamonaviy boshlang'ich ta'limning umumiy ko'rsatmasi va an'anaviy tarzda ijro etuvchi komponentini amalga oshirishga yo'naltirilgan bolalar faoliyatini tashkil etish shakllari o'rtasida qator qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Bu jarayondagi eng katta muammolardan yana biri bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ham ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish

muammosini mavjudligidir. Chunki o'zida ijtimoiylashuv muammosi bor pedagog hech qachon o'quvchilarida bu muammoni hal eta olamydi. Shu sababli jamiyatda o'sib kelayotgan avlodning faol ijtimoiylashuviga bo'lgan zarurat va talabalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratmaslik, shuningdek, maktab amaliyotiga bo'lgan ehtiyoj va ushbu muammoni amalga oshirish mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi o'rtasidagi qarama-qarshilik ko'zga tashlanadi.

Ijtimoiy jihatdan maqbul xulq-atvor shakllarini shakllantirish va mustahkamlash hamda ulardan yangi munosabatlar tizimida foydalanishni amalga oshirish imkoni bor, deb hisoblaymiz. Xulq-atvorga oid vazifalarni hal qilishning tez-tez takrorlanadigan usullari odatga aylanib qoladi. Buni L.I.Bojovichning fikrlari ham tasdiqlaydi. Unga ko'ra, muayyan shaxsiy fazilatlar asosida talaba xulq-atvorining belgilangan va odatiy shakllari yotadi. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish haqida gapirganda o'zingiz yoki boshqa birovga sust taqlid qilishga emas, balki ijodiy o'zgarishlarga imkon beradigan samarali ta'sir ko'rsatish me'yor va vositalariga muvofiq taqdim etilgan vaziyatda faol va ongli xatti-harakatlarga urg'u berish kerak. Aynan shu turdagi xatti-harakatlar ijtimoiylashuvning yuqori darajasiga to'g'ri keladi va unda o'z shaxsiyati, atrof-muhit va o'z faoliyatini baholash bilan bog'liq bo'lgan anglash elementi mavjud.

Ijtimoiy qulay sharoitlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi atrofda dunyo bilan o'z munosabatlarining yuqori darajasiga erishishi mumkin. U faqat mazmun-mohiyatni o'zida ifoda etishi yoki umuman o'zini ijtimoiy hayotdagi salbiy tendentsiyalarning tashuvchisi sifatida ko'rsatishi, o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatini faol ravishda amalga oshirishi yoki ijobiy ijtimoiy mazmunni o'z-o'zidan va qisman namoyon etishi mumkin. Shundan so'nggina o'qituvchi mazkur yosh davrining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lum sharoitlarni yaratib, o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga doir amaliy ishlarni bajara oladi. Zamonaviy boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning yetakchi tendentsiyasi nafaqat o'quvchilarning boshlang'ich bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, eng muhim intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, balki bola shaxsining umumiy rivojlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, uning muvaffaqiyatli

ijtimoiylashuvi uchun zarur ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ko'nikmalar deganda biz ijtimoiy xulq-atvorning barqaror shakllarini tushunamiz. Ko'nikma – bu faoliyatning barqaror elementi, ijtimoiy harakat.

Ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari haqida gapirganda, biz nafaqat mazkur yo'nalishga doir bilimlar, balki ularni qo'llash, rolli xatti-harakat me'yor va qoidalari, ijtimoiy funktsiyalar, urf-odatlarga qadriyatli munosabatni ham nazarda tutamiz. Amaliyotda ijobiy tasdig'ini topib, samarali natijaga erishish imkonini beradigan atrofdagilar bilan o'zaro aloqalar tizimida to'plangan eng ahamiyatli shaxsiy tajribani qayd etish muhimdir.

Ko'nikmalar – nafaqat yaxshi mashq qilingan va o'zlashtirilgan, balki, eng avvalo, muayyan xatti-harakatlar modelini qabul qilish hamda anglashga asoslangan harakatlardir. "Ijtimoiy ko'nikma" tushunchasida, bizning holatda, bu inson faol foydalanadigan ba'zi bir amalga oshirilgan malakalar ekanligiga urg'u beriladi. Ijtimoiy malakalar – bu bir nechta ijtimoiy ko'nikmalarning elementlarini o'z ichiga olgan xulq-atvorning yuqori darajasi. Ular orasida xatti-harakatlar, o'z ichki dunyosi bilan muomala usullari ham mavjud. Ya'ni ijtimoiy malakalarni shaxsga oid harakatlar deb hisoblash mumkin bo'lib, ularning predmetli mazmunini shaxslararo va shaxsga oid ichki ta'sir usullari tashkil qiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy ko'nikmalar – bu ijtimoiy xulq-atvorning o'zlashtirilgan elementlari bo'lib, ular ijtimoiy olam, o'zi va bu yorug' dunyodagi o'rni haqidagi bilimlarga, ijtimoiy o'zaro aloqalarni osonlashtiradigan xatti-harakatlar haqidagi bilimlarga hamda insonga atrof-muhit bilan munosabatlarni samarali ravishda o'rnatishga, o'z o'rnini belgilab olishga va o'zligini namoyon qilishga imkon beradigan harakatlarga asoslanadi hamda bu muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv va umuman ijtimoiylashishga yordam beradi.

Natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar o'rtasida ijtimoiy ko'nikmalar darajasi turlicha ekanligi aniqlandi. Dastlabki diagnostika natijalariga ko'ra, talabalarining taxminan 40% o'rtacha darajadagi kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lsa, 30% yuqori darajaga ega, qolgan qismi esa rivojlantirishni talab qiladi.

Mashg'ulotlari davomida quyidagi metodlar samarali ekanligi aniqlandi:

- guruhli muhokamalar;
- rolli o'yinlar;
- pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish;
- jamoaviy loyiha ishlari.

Mazkur metodlardan foydalanish natijasida talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlik kuchaydi, muloqot madaniyati shakllandi hamda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari rivojlandi.

Shuningdek, trening mashg'ulotlari talabalar o'rtasida o'z fikrini erkin ifodalash, boshqalarni tinglash va jamoada ishlash ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish pedagogik ta'limning muhim vazifalaridan biridir.

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun an'anaviy dars shakllari yetarli emas. Buning uchun interaktiv metodlar, treninglar va amaliy mashg'ulotlar keng qo'llanilishi lozim;
- pedagogik ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilar, otalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qila olishi kerak;
- Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy yondashuvlarni doimiy o'rganib, tahlil qilib borish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir // Xalq so'zi. – 2017. – 1 iyul.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-con Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda.
3. Кемпион Дж. Психология: учеб. / отв. ред. А.А.Крылов. – 2-е изд, перераб. и доп. – М.: Проспект, 2012. – 752 с.

4. Ziyomuhamedov B. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent.
5. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar.
6. Raximova, M. (2021). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA MAZMUNI. Mir issledovaniy, 2(2).
7. Abduxosilovna, R. M. (2021). Formation of Social Skills in Primary School Students with Diagnostic Tools. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 5282-5290.
8. Raximova, M. A. (2019). SOME PROBLEMS IN FORMING SOCIAL-EMOTIONAL COMPETENCIES ON ELEMENTARY CLASS PUPILS. Theoretical & Applied Science, (11), 277-280.
9. Rahimova, M. (2019). EDUCATIONAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SOCIAL AND EMOTIONAL SKILLS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(12), 310-316.
10. Rahimova, M. (2019). INTERNATIONAL EVALUATION STANDARD OF EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY IMPLEMENTATION OF OPERATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 270-275.